

YASHIL

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEKNOLOGIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI


2
0
2
4

MAQOLALAR TO'PLAMI

MAXSUS SON
Iyun-iyul



Digital
Object
Identifier



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Mas'ul muharrir:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Xudoyqulov Sirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'ZR Tabiat resurslari vazirligi, O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

“ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEXNOLODIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI”

MAVZUSIDAGI ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI





BUXORO VILOYATIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Xakkulov Eldar Xudoyberdiyevich

Buxoro muhandislik texnologiya
instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hamda uning Buxoro viloyati iqtisodiyotidagi o'ri va tasiri ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Buxoro viloyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish ko'rsatkichlari taxlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, milliy iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, platforma, zamonaviy texnologiyalar, elektron hukumat, telekommunikatsiya infratuzilmasi.

Abstract: This article examines the role and impact of the development of digital technologies in the economy of Bukhara region. Also, the analysis of indicators of development of digital technologies in Bukhara region is given.

Key words: digital technologies, national economy, digital economy, platform, modern technologies, e-government, telecommunication infrastructure.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и влияние развития цифровых технологий на экономику Бухарской области. Также дан анализ показателей развития цифровых технологий в Бухарской области.

Ключевые слова: цифровые технологии, национальная экономика, цифровая экономика, платформа, современные технологии, электронное правительство, телекоммуникационная инфраструктура.

KIRISH

Bugun raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va odamlar hayotiga jadal kirib bormoqda. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifaga aylangan. Prezidentimizning 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2023-yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ular eksportini 1 milliard AQSH dollariga yetkazish vazifasi qo'yilgan. "McKinsey" ekspertlarining baholashi bo'yicha bugungi kunda jahon YAIMning qariyb 10 foizi raqamli aktivlarga to'g'ri keladi, shu bilan birga, ularni ishlab chiqish sur'ati jahon iqtisodiy o'sishining 30 foiziga teng. Raqamli aktivlarning rivojlanishi akselerator (tezlashtiruvchi) harakatiga o'xshaydi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga chiqardi. Bunga mamlakatimiz tashqi savdo hajmining o'sishini misol qilib keltirish mumkin. "Elektron hukumat", "elektron boshqaruv", "telekommunikatsiya", "internet", "veb-sayt" kabi yuzlab iboralar hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylandi. IT kundalik hayotimizning barcha sohasini qamrab olmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida Elektron hukumat va yagona interaktiv xizmatlar portali orqali 517 ta xizmat yo'lga qo'yildi hamda ushbu xizmatlar aholining vaqti va xarajatlarini tejamoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalar sohasida olib borilgan tadqiqotlar bugungi kunda iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ko'plab sohalarda inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini bermoqda. O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni mamlakat rivojlanishining ustuvor vazifalari qatoriga kiradi.

O'zbekistonlik olimlar orasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. X. To'ychiyev raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi¹. U o'z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va xizmatlar sifatini yaxshilash imkoniyatlariga urg'u beradi.

¹ To'ychiyev X. (2022). Raqamli iqtisodiyot va O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.



M. Karimov o'z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarni qishloq xo'jaligida qo'llash bo'yicha yondashuvlarni o'rganib, ularning qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini yaxshilash va mahsuldorlikni oshirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi². Karimovning fikriga ko'ra, raqamli texnologiyalar qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirishda va suv resurslaridan oqilona foydalanishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Xorijlik olimlar orasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirilgan. K. Schwab tomonidan taqdim etilgan «To'rtinchi sanoat inqilobi» konsepsiyasi raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning global tendensiyalariga asos soladi³. Schwabning fikriga ko'ra, raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatib, yangi sanoat inqilobini boshlab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish tendensiyalarini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Shu bois raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni, ayniqsa, korrupsiyani keskin kamaytiradi.

Shu o'rinda alohida qayd etib o'tish kerakki, yangi bir uyg'onish davri – Uchinchi Renessansga poydevor qo'yilayotganligi istiqbolimizning ulug'vorligini namoyon etadi. Ilmsiz, ma'rifatsiz jamiyat va mamlakat taraqqiyotini tasavvur qilish mushkuldir. Yusuf Xos Hojib o'zining asarida “Bilimsiz kishi mevasiz daraxtdir, mevasiz daraxtni och kishi nima qilsin?!” deb ilm-ma'rifatning o'rni naqadar dolzarb va muhimligini ko'rsatib o'tgan. Davlatimiz rahbari tomonidan ilm-ma'rifatga alohida urg'u berilishi va bu orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalarining kun tartibiga qo'yilishi O'zbekiston tanlagan yo'l faqat bir manzilga olib borishini, ya'ni iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to'liq amal qiladigan jamiyat qurishning yangi bosqichiga o'tganimizni yaqqol ifoda etadi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha aniq miqdor ko'rsatkichlari ham belgilangan bo'lib, davriy jihatdan

2020–2023-yillarni qamrab oldi. Xususan, 2020–2021-yillarda barcha sog'liqni saqlash muassasalari, maktablar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari, shuningdek, qishloqlar va mahallalar yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulandi hamda aloqa xizmatlari sifatini oshirish, raqamli infratuzilmani to'liq modernizatsiya qilish va zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlaridan barcha hududlarda foydalanish imkoniyati ta'minlandi, 2023-yilga kelib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 3 baravarga ko'paydi.

Amaliy sa'y-harakatlar samarasi uzoq kuttirib qo'ymadi. “O'zbekiston mobil internet tezligi bo'yicha dunyoning 141 mamlakati ichida 91-o'rinni egalladi. Bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 9 pog'ona yuqoridir. Tegishli ko'rsatkich “Speedtest Global Index” veb-xizmatining reytingida qayd etildi.

O'zbekistonda joriy yilning yanvar oyida mobil internet orqali o'rtacha yuklab olish tezligi 26,97 Mbit/s, yuklash tezligi esa 11,25 Mbit/s ni tashkil qilgan.

Buxoro viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirishni rivojlantirish mamlakatda, jumladan, viloyatimizda hokimliklar, sektorlar, barcha mutasaddi tashkilot va korxonalar rahbarlari faoliyatining muhim yo'nalishiga aylandi.

Mazkur Farmon asosida viloyat hokimining 399-sonli Qarori qabul qilindi va “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi asosida 2020–2022-yillarda viloyat hokimligining hududda raqamli transformatsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 26 milliard so'mga teng jami 47 ta loyiha shakllantirildi. Shundan raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha 7 ta, davlat boshqaruvi bo'yicha 8 ta, ijtimoiy soha bo'yicha 9 ta, kommunal xo'jalik tarmog'ida 3 ta, qishloq xo'jaligida 10 ta, sanoat va qurilish yo'nalishida 3 ta hamda o'qitish va malaka oshirish bo'yicha 7 ta loyiha ishlab chiqilgan.

2 Karimov M. (2023). Qishloq x'jaligida raqamli texnologiyalarni q'llash imkoniyatlari. U'zbekiston qishloq x'jaligi jurnali, 12(4), 45-58.

3 Schwab K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. New York: Crown Business.



Buxoro viloyati hududlarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda keng polosali optik tarmoqni kengaytirish bo'yicha 2023-yilda 1369 ta qurilmalar orqali 208 300 ta viloyatimiz aholi xonadonlariga hamda yuridik mijozlarga simli internet xizmatlari yo'lga qo'yildi. Buxoro, Vobkent, Kogon, Jondor, Peshku, Romitan, Shofirkon, Qorako'l, Qorovulbozor tumanlarining 1535 ta aholi maskanlaridan 1490 tasida jami 5764 km optik tolali aloqa liniyalari yangidan tashkil etildi.

2023-yil yakunida Buxoro viloyati YAHM hajmi 53 232,3 mlrd. so'mni tashkil etgan holda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,2% ga o'sgan, shuningdek, YAIM tarkibida viloyatning hissasi 5,0% ni tashkil etgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAHM hajmi esa 26,3 mln so'mni tashkil qilgan holda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,4% ga oshgan.

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAHMning 96,1%ini tashkil etgan bo'lsa, maxsulotlarga sof soliqlar esa 3,9%ini tashkil etgan. YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibida sanoat ulushi qurilishni qo'shgan holda 26,4% (2022-yilda 26,3%), qishloq xo'jaligi ulushi 43,4% (2022-yilda 44,1%) va xizmat ko'rsatish ulushi 30,2% (2022-yilda 26,3%) ni tashkil qilgan.

2023-yilda raqamli texnologiyalarni yanada samarali joriy etish, optik tolali aloqa liniyalar kamrovini oshirish, mobil internet texnologiyalarini rivojlantirish oqibatida Buxoro viloyat iqtisodiga o'tgan yilga nisbatan sezilarli darajada o'sishga erishilgan. Asosan, xizmatlar ko'rsatish 30,2 % o'sishi, viloyatda 2023-yildi IT eksport korxonalarining 1,2 mln dollarlik daromadlari alohida o'rin egallagan. 2024-yilda Buxoro viloyati IT kompaniyalari tomonidan 40 mln. dollar miqdorda eksport xajmini amalga oshirish, 2023-yilga nisbatan 40 barobarga oshirish rejalashtirilgan. Albatta, ushbu IT kompaniyalarga bu yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun malakali kadrlar kerak bulishini inobatga olib, viloyatda 2024-yilda halqaro chet tillarni o'rgatish va halqaro sertifikatga ega bo'lgan 3800 ta mutaxassis tayyorlash rejasi belgilangan. Buxoro viloyatida bu ko'rsatkichlarni amalga oshirish maqsadida Hindistonning Achariya universiteti bilan hamkorlikda Qorako'l tumanida IT klaster, viloyatning barcha tumanlarida IT markazlar, Buxoro shahrida IT-park tashkil qilingan bo'lib, o'zining yuqori samarasini bermoqda.

Mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining shakllanishida viloyatning hissasi ancha ahamiyatli hisoblanadi. YAIMda viloyatning hissasi 5,0%ni tashkil etib huddudlar ichida 8-o'rin, respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi hissasi 5,0%ni tashkil etib 6-o'rin, asosiy kapitalga investitsiyalar kiritish 8,9%ni tashkil etib 3-o'rinni egallagan.

Viloyat aholi jon boshiga asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblaganda respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqoridir. Jumladan, aholi jon boshiga YAHM hajmi, xizmatlar sohasi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar sohalari bo'yicha hududlar ichida

4-o'rinni egallab turganligi hudud iqtisodiyotining naqadar ahamiyatli ekanligini bildiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxoro viloyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari viloyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish qishloq xo'jaligidan tortib sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarigacha barcha jabhalarda samaradorlikni oshiradi. Xususan, qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalar suv resurslarini boshqarish, ekinlarni kuzatish va hosildorlikni oshirishda muhim vositaga aylanishi mumkin. Sanoatda esa raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va sifat nazoratini kuchaytirishga yordam beradi, bu esa mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida ham sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masofaviy ta'lim tizimlarini rivojlantirish orqali viloyatdagi ta'lim sifati oshirilishi, sog'liqni saqlashda esa elektron sog'liqni saqlash tizimlari orqali tibbiy xizmatlarning samaradorligi va qulayligi oshirilishi kutilmoqda.

Umuman olganda, Buxoro viloyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish viloyat iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqishi, raqobatbardoshligini oshirishi va aholining farovonligini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan izchil chora-tadbirlar viloyatni raqamli iqtisodiyotga o'tishda ilg'or hududlardan biriga aylantirishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://digital.uz/> – O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi rasmiy web sayti.
2. www.it-park.uz/ - It Park Uzbekistan rasmiy web sayti
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 26 февралдаги ПҚ 87-сон Қарори. www.lex.uz.
4. Президентимизнинг 2020 йил 28 апрелдаги “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. www.lex.uz.
5. X.To'ychiyev. (2022). Raqamli iqtisodiyot va O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.



6. Каримов М. (2023). Қишлоқ хўжалигида рақамли технологияларни қўллаш имкониятлари. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали, 12(4), 45-58.
7. Schwab K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. New York: Crown Business.



MUNDARIJA

Muhandislar – taraqqiyot tayanchi	4
Sadoqat Siddiqova	
Исследование влияние азотсодержащей добавки на процесс окисления битумов	9
Юлдашев Норбек Худайназарович	
Ziyorat turizmining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar yechimida terminologiyaning ahamiyati.....	14
Malohat Jo'rayeva, Shavkat Bafoyev	
Ekspluatatsiya davrida kompressor moylarining ishlashi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishining o'ziga xosligi	19
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich	
Tabiiy gazning oltingugurtli qo'shimchalarining fizik-kimyoviy xossalari tadqiq qilish	24
Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich	
Автоматическое формообразование пневматических опалубок бикубическими сплайнами.....	30
Ядгаров Ўктам Турсунович, Ахмедов Юнус, Асадов Шухрат Кудратович	
Optimizing the efficient transport of mass from alternative energy sources and the process of heat and mass exchange during the processing of spices	37
Khayrullo Djurayev Fayzievich, Mizomov Mukhammad Saydulla ugli	
The role of digitalization in regional development and the utilization of their potential for sustainable development	44
Jafarova Khilola Khalimovna	
Разработка новых структур и способов выработки комбинированного трикотажа с повышенной формоустойчивостью на базе интерлочного переплетения	48
Гуляева Г.Х., Мукимов М.М., Каримова Н.Х.	
Кислотная активация навбахорской бентонитовой глины	53
Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Хотамов Кобил Ширинбой угли	
Mustaqil ta'limni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	58
Murodova Zarina Rashidovna, Jo'raqulova Mehrangez Orifovna	
Kislorodli birikmalar asosida olingan antidetonatsion kompozitsiyalarning ai-80 avtomobil benzinini detonatsion barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish	66
Saloydinov Aziz Avazovich	
Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	70
Akramova Obida Qosimovna	
Исследование механико-технологических параметров глубокого рыхления почвы подпахотного горизонта.....	77
Н.С.Бибуттов, Ф.Ю.Хабибов, Ш.М.Муродов	
Разработка экспериментальной установки энергосберегающего измельчителя фруктов и овощей для производства сок с мякотью.....	85
Ф.Ю. Хабибов, Х.Х. Ниязов	
Туризм: типология и классификация.....	95
Малохат Мухаммадовна Жураева, Марупова Гульноз Умарджоновна	
"Yashil energetika"ni rivojlantirishni rag'batlantirishning me'yoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.....	99
Sadullayev Nasullo Ne'matovich, G'afurov Mirzoxid Orifovich, Ne'matova Zuxra Nasullo qizi	
Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda diversifikatsiyalangan milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanishning ahamiyati.....	108
Ruziyeva Gulinoz Fatilloevna, Raximova Dilorom Sulaymonovna	
Polimerlar ishlab chiqarishda hamda ularni qayta ishlashda hosil bo'ladigan chiqindilardan samarali foydalanish jihatlari	114
Raxmatov Sherzod Shuxratovich, Sadirova Saodat Nasreddinova, Niyozova Rano Najmiddinova, Axmedov Hafiz Ibroimovich	
Kichik quvvatli, energiya samarador shamol turbinalari ko'rsatkichlarining tahlili.....	118
I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, M.Sh. O'ktamov	



Анализ ингредиентов пищевых продуктов с помощью нейронной сети	127
Мухамадиева Зарина Баходировна	
Dizel moylarini reologik xossalarini tatqiq qilish	132
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Toshov Mavzuddin Sa'dullo o'g'li	
Анализ состав и свойства нефтяных остатков и битумов	136
Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович	
Kambag'allikdagi tarkibiy o'zgarishlarning aholi turmush farovonligi darajasiga ta'sirining ahamiyati.....	141
Xayitov Sherbek Naimovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	148
Sayidova MaftunaHamroqul qizi	
Production of tomato paste	153
Ergasheva Muhabbat Komil kizi	
Problems of development of research and innovative activities in higher educational institutions.....	156
Rakhimova Dilnoza Davronovna, Alimova Ruxsora Xamzayevna	
O'zbekiston mehnat bozorida bandlikning innovatsion turlarini shakllantirish va rivojlantirish omillari	159
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna	
Dual ta'limda keys texnologiyasini qo'llash	166
Sariyev Rustam Bobomuradovich	
Mintaqada bank-moliya tizimini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari	169
Jumayev Bahodir Raxmatullayevich	
Chiqindi AKM katalizatorlardan kobalt va molibdenni ajratish usuli.....	174
Tursunova F. J., G. R. Bozorov	
Hududlarning mutanosib barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari (ijtimoiy rivojlanish va yo'nalishlar)	180
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini samarali boshqarish muammolari	185
Kudratov Muhammad Rustamovich	
Iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini oshirish.....	190
Amrulloev Dadaxon Nurmat o'g'li	
Mintaqada barqaror rivojlanishni ta'minlashda raqamli texnologiyalarning o'rne.....	194
Jafarova Hilola Xalimovna	
Nordon gazlarni aminli tozalash jarayonida ko'pik so'ndirgichlarning kimyoviy ta'sir mexanizmi	198
Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich	
Uglevodorodlarning fizik-kimyoviy tahlili	207
Abduraxmonov Olim Rustamovich, Islomov Alisher Nurillayevich	
Iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini oshirish.....	213
Amrulloev Dadaxon Nurmat o'g'li	
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish	217
Buxoro viloyatida kambag'allikni bartaraf etish va bandlikni oshirish yo'nalishida hududlar kesimida mavjud imkoniyatlar tahlili.....	223
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
Neft va gaz sanoati chiqindilarining atrof-muhitga salbiy ta'sirlarini tahlili	229
Ochilov Abduraxim Abdurasulovich, Uzakbaev Kamal Axmet uli, O'rinov Xurshid Xayridin o'g'li	
Blokcheyn tizimlarida kriptografik kalitlar uchun tasodifiy sonlarni generatsiyalovchi SuperCSPRNG algoritmi	235
Nurullayev Mirxon Muhammadovich	
"Yashil" energetikaning o'zbekiston iqtisodiyotiga ijobiy va salbiy ta'sirlarini baholash va ularni tahlil qilish.....	241
I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, A.Y. Baqoyev	
Buxoro viloyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari.....	247
Xakkulov Eldar Xudoyberdiyevich	

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.